

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

“TASDIQLAYMAN”

**Ilmiy ishlar va xalqaro
aloqalar bo‘yicha prorektor
R.Shirinoва**

“_____” _____ 2026-yil



22.00.01 – “Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqotlar usullari” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni

DASTURI

TOSHKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

M.B.Bekmurodov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

B.Sh.Karimov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

T.B.Matibayev – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M.Sodiqova – sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli hamda 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-95-sonli Farmoniga asosan mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish va kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlash taqozo etiladi.

Hozirgi o‘zgarishlar jarayonida ta’lim tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bu islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’limning tub maqsadi va mohiyatining o‘zgarib borishi, uning aholi talab-ehtiyojlarini qondirishga qaratilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarning eng muhim tomonlaridan biri ta’limning ijtimoiylashuvi va ta’lim tizimining insoniylashuvi (gumanizatsiyalashuvi)dan iborat. Bugungi kunda davlatimiz ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar va talabalarni dunyoviy, zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy-gumanitar bilimlarni egallashga yo‘naltirmoqda.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarni egallash jarayonida sotsiologik ta’limotlar muhim o‘rin egallaydi. Sotsiologik ta’limning muhim funksiyalaridan biri – sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash hamda bartaraf etish yo‘llari va imkoniyatlarini qidirib topish. “Sotsiologiya” fani jamiyat dinamikasi hisoblanadi. Shu boisdan ham, “Sotsiologiya” fanini umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga erishish, xalqchil, adolatli, keng jamoatchilik fikri, intilishi, maqsadlari asosida ijtimoiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini “Sotsiologiya” fani doirasida tahlil qilish, o‘rganish va olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va masalalar davlat hamda jamiyat qurilishini takomillashtirishga, o‘zgarishlarga moslashishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda sotsiologiya sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holati hamda chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotdan kelib chiqadi. Dasturda sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi, uning tarkibiy tuzilishi, jamiyatni yaxlit tizim tariqasida tahlil qilish, ijtimoiy hayotda sotsial institutlar roli, deviant xulq-atvor va sotsial nazorat masalalari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va stratifikatsion jarayonlar, sotsial munosabatlar, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalariga oid mavzular yoritilgan.

Dasturda qo‘yilgan mavzu va masalalar “Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqotlar usullari” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki muammolar va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini ham talab qiladi.

Dastur 22.00.01 – “Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi va tarixi. Sotsiologik tadqiqotlar” ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilarning ushbu fanlardan nazariy va amaliy bilimlarini atroflicha baholash maqsadida tuzilgan.

“Sotsiologiya” fanining predmeti, mazmuni va vazifalari

“Sotsiologiya” fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. O.Kont – pozitiv sotsiologiya asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta’limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. G‘arb sotsiologiyasi klassiklari ishlarida sotsiologiyaning ob‘yekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo‘nalishlarida fanning ob‘yekti va predmeti muammosini yechish yo‘lidagi g‘oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Sotsiologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘ziga xos o‘rni.

Ijtimoiy tuzilma tarixi va nazariyasi

“Ijtimoiy tuzilma” tushunchasi va uning tarixi. Ijtimoiy tuzilma va uning asosiy tarkibiy qismlari. Ijtimoiy qatlam va uning tarixi. Ijtimoiy institutlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni. Ijtimoiy guruhlar. Ijtimoiy maqom. Stratalar. Aholining ijtimoiy qatlami. Ijtimoiy mobillik. Ijtimoiy rollar. Jamiyat. Qatlam. Sinflar. Demografiya. Din. Qadriyatlar va me’yorlar. Tashkilotlar. Ijtimoiy rollar. Insonning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi o‘rni. Individ. Empirik sotsiologiyaning bunyod bo‘lishi va uning sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta’siri. Makroguruhlar va mikroguruhlar. Sotsiologik tadqiqot usullari.

Ijtimoiy institutlar tarixi va nazariyasi

Sotsiologiyada “ijtimoiy institut” nazariyasi. Ijtimoiy institutning belgilari va tarixi. Ijtimoiy institutning asosiy vazifalari. Ijtimoiy institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta’lim, huquq va boshqalar. Jamiyat hayotida ijtimoiy institutlarning o‘rni. Turmush tarzi. Oila va nikoh. Fuqarolik institutlari. Ularning ko‘rinishi va vazifalari. Ijtimoiy guruhlar va xatti-harakat. Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik tarixi va nazariyasi. Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Din sotsiomadaniy institut sifatida. Ta’lim ijtimoiy institut sifatida. Maktabgacha ta’lim, umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta’lim. Oliy ta’lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash metodologiyasi, nazariyasi va tarixi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi va Yevropa hamda AQSH universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta’lim tizimidagi islohotlar.

Deviant xulq-atvor va ijtimoiy nazorat tarixi

“Deviant xulq-atvor” (og‘ma xulq-atvor) tushunchasi tarixi va nazariyasi. Deviant xulq-atvor muammosini o‘rganish sotsiologiyada ilmiy yo‘nalish sifatida. Deviant xulq-atvorning turlari: qonunni buzish, o‘z-o‘zini o‘ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturaning buzilishi) nazariyalari. Deviant xulq-atvor belgilari, ularning tuzilmasi. Deviant xulq-atvorni turkumlash. Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Hozirgi davrda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o‘zgarishi. Deviant, delinkvent va kriminal xatti-harakatlar. Professional jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik. Dunyoda jinoyatchilikning holati. Jinoyatchilikning oshishi va jamiyatning kriminallashuvi sabablari hamda namoyon bo‘lish shakllari. O‘smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Jamiyatda korrupsiya muammosi. Ijtimoiy nazorat. Ijtimoiy nazorat elementlari: me’yorlar va sanksiyalar. Ijtimoiy sanksiya turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Ijtimoiy me’yorlar tasnifi. Ijtimoiy me’yor turlari: huquqiy, diniy, an’anaviy va axloqiy. Jamoatchilik fikri ijtimoiy nazoratning shakli sifatida.

Jamiyat ijtimoiy tuzilmasi tarixi va stratifikatsion jarayonlar

Ijtimoiy tuzilma to‘g‘risidagi antik davr mutafakkirlarining ta’limotlari. P. Sorokinning stratifikatsiya to‘g‘risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holat, mavqe, ta’lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differentsiatsiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik ta’limotiga qarshi g‘oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Sotsial mobillik to‘g‘risidagi sotsiologiya klassiklari M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari. Mobillik belgilari. Mobillik turlari: gorizontaal va vertikal sotsial mobillik. Guruhiy va individual mobillik. Avlod ichidagi va avlodlar o‘rtasidagi sotsial mobillik. Tuzilmaviy sotsial

mobillik. Jamiyatda sotsial mobillik yo‘llari. Mobillikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlari bozori.

Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Dasturning strukturasi: nazariy - metodologik va metodik bo‘limlar. Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta’riflash; tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmetini aniqlash; ob‘yektning tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Sotsiologiyadagi ma’lumotlarni to‘plash metodlarining umumiy tasnifi: so‘rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o‘rganish metodlari, ularning o‘ziga xosligi.

So‘rov metodi. So‘rovning turlari. Anketa (so‘rov varaqasi) so‘rov metodining asosiy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Anketaning umumiy tuzilishi. Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Og‘zaki so‘rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi.

Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish turlari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta’minlash usullari. Kuzatish davrlari va tartibi. Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari.

Hujjatlarni o‘rganish metodi. Sotsiologiyada “hujjat” tushunchasi, uning turlari. Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o‘rganish metodining bir turi sifatida.

Eksperiment metodi. Eksperiment turlari. Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Ob‘yektning tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Xulosalarni tahlil qilish usullari.

**22.00.01 – “SOTSILOGIYA NAZARIYASI, METODOLOGIYASI VA TARIXI.
IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY
SAVOLLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish masalalari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida inson kapitalini rivojlantirish masalalari.
5. Ijtimoiy institutlar tarixi, guruhlar ijtimoiy tuzilmaning elementlari sifatida.
6. P.A.Sorokin nazariyasida differentsiatsiya mezonlari: fuqarolik, millat, mashg‘ulot turi, iqtisodiy maqom (status), diniy mansublik.
7. Modernizatsiya konsepsiyasi va uning mexanizmlari.
8. R.Darendorfning sotsial konfliktlar nazariyasi .
9. Industrial va postindustrial jamiyatlarda sotsial institutlar tasnifi.
10. O‘zbekistonda mulkdorlar va o‘rta qatlamni shakllanish tahlili.
11. Sotsial mobillik sotsial stratifikatsiya shakllarining o‘zgarish omili sifatida.
12. Yangi O‘zbekiston elitasining tuzilishi: siyosiy, ijodiy, ziyoli, tadbirkorlar, qurolli kuchlar.
13. Yoshlar mehnat bozori ko‘lamiga migratsion jarayonlarning ta’siri.
14. Ijtimoiy o‘zgarishlarni o‘rganishda tuzilmali-funksional yondashuv nazariyasi (T.Parsons).
15. Ijtimoiy-iqtisodiy differentsiatsiya mezonlari tarixi.
16. Yoshlar mehnat bozorida kasbiy nufuz iyerarxiyasi nazariyasi va tarixi.
17. “Sotsial mobillik” tushunchasi, uning turlari va asosiy yo‘nalishlari tarixi.
18. Sotsial integratsiya va dezintegratsiya tavsifi.
19. Ijtimoiy-iqtisodiy differentsiatsiya mezonlari.
20. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy faoliyat tahlili.
21. Yoshlar mehnat bozorida kasbiy nufuz iyerarxiyasi.
22. AQSH sotsiologi J.Smelzerning sotsiologik metodlar xususidagi qarashlari.
23. P.A.Sorokinning sotsiologiya fani predmeti to‘g‘risidagi qarashlari.
24. Sotsiologiyada pozitivistik oqim nazariyalari mohiyati va ahamiyati.
25. Alisher Navoiyning ijtimoiy qarashlari.
26. Ibn Xaldunning ijtimoiy qarashlari.
27. Kofutsiyning ijtimoiy qarashlari.
28. Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlari.
29. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi ijtimoiy qarashlari.
30. Aristotel tomonidan o‘rta sinfning ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida asoslanishi.
31. Forobiyning ijtimoiy qarashlarida sotsial struktura muammolarining tadqiq etilishi.
32. Sotsial tabaqalanishga sinfiylik tamoyilining qo‘llanishi va uning salbiy oqibatlari.

33. Ommaviy qatag'onlar – sinfiy yondoshuvning maxsuli sifatida.
34. XX asrning 20-30 yillaridagi sinfiy tabaqalashuv va uni o'zbek xalqiga keltirgan jiddiy va ayanchli oqibatlari.
35. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi.
36. Sotsial stratifikatsiya masalalarining tarixiy tahlili.
37. O'zbekistonda o'rta sinf va uning tarkibi.
38. Sotsial mobillik tushunchasi.
39. O.Kont pozitiv sotsiologiya asoschisi sifatida.
40. E.Dyukgeymning nizolar sotsiologiyasi.
41. Sharq sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
42. G'arb sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.
43. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining ob'yekti va sub'yekti.
44. Jamoatchilik fikrini o'rganishning ijtimoiy ahamiyati.
45. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining tarixiy ildizlari.
46. Ijtimoiy muammolar yechimiga mos mexanizmlarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrining o'rni.
47. Boshqaruv tizimi unumdorligi va jamoatchilik fikri munosabatlari.
48. Jamoatchilik fikri va ijtimoiy adolat tamoyili munosabatlari.
49. O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining faoliyati.
50. M.Veberning sotsial harakat to'g'risidagi qarashlari.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 1-tom. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.592.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 2-tom. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B.508.
3. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 3-tom. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – B.400.
4. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 4-tom. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – B.408.
5. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 5-tom. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.
6. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 6-tom. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.536.
7. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.
8. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.416.
9. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B.464.
10. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.440.
11. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich.. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. -T.: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2024. 42-bet.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//“Xalq so‘zi”. 2017-yil, 23-dekabr (№258 (6952) soni.
13. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola.–T.:2017.
14. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // <https://president.uz/uz/lists/view/7519>

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – T.: Adolat, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 8-avgust, O‘RQ – 788 – son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

Asosiy adabiyotlar

1. Bekmuradov M. O‘zbek mentaliteti. – T.: Ma’naviyat, 2010 .
2. Sodiqova Sh.M. O‘zgarishlar sotsiologiyasi. - T.: Akademiya, 2019.
3. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2019.

4. Qirg'izboyev M. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z. 2022.
5. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2020.
6. Aliyev B., Rafiqov G., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). – Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2006.
7. Ганиева М.Х. Этносоциология. Учебное пособие для студ. высших учебных заведений. – Ташкент: «Университет». 2006.
8. Гараджа. В.И. Социология религии. – Москва: «Инфра-М». 2005.
9. Гиддингс Э. Социология. – Тошкент: 2002.
10. Кравченко А.И. Социология. – Москва: «ПЕРСЭ-Логос». 2006.
11. Социология //Учебное пособие. Под редак. д.ф.н. Мухамедовой З.М. – Ташкент.: «Sanbat». 2010.
12. Социология //Учебное пособие. Под редак. проф. Лаврененко В.Н. –Москва: «ЮНИТИ». 2012.
13. Тощенко Ж.Т. Социология. //Учебник. - Москва: «ЮНИТИ». 2012.
14. Saitxodjayev H.B. Sotsiologiya. Ma`ruzalar kursi. –Тошкент: «Академия». 2008.
15. Farfiyev B.A., Nurullayeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo'llanma). Toshkent: “Universitet”. 2009.
16. Фролов С.С. Общая социология. //Учебник. - Москва: «Проспект». 2012.
17. Sodiqova Sh.M. Boshqaruv sotsiologiyasi. (Darslik). – Toshkent: Akademiya, 2020.
18. Социология : учебник и практикум для вузов / Глебов В.В., Гришин А.В., Мартыянова Г.В. – Москва: Юрайт, 2023.
19. Sotsiologiya nazariyasi va tadqiqotlari, amaliyot bilan birga berilgan o'quv qo'llanma, 2023.
20. Методология и методы социологического исследования / Оганян К.М. – Москва: Юрайт, 2023.
21. Sotsiologik tadqiqot usullari va metodologiyasi bo'yicha yangilangan o'quv qo'llanma, 2023.
22. Методология ва усуллар мавзусида бир оз ривожланган ва сўнгги йилларда chop etilgan adabiyot 2023.
23. M Bekmurodov. Farosat ilmi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2022.
24. M Bekmurodov. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2023.
25. Социология / Мамедов А.А., Картунов В.В., Донских К.Ю., ва бошқалар – Москва, 2024.
26. Sh. To'rayev “O'zbekistonda ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” (2024).
27. A. Rahmatov, D. Musayev. “Ijtimoiy fanlar va sotsiologiya” (Toshkent, 2025).
28. N. Hakimova “Gender sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot” (2025).
29. Методология и методы социологических исследований / Кравченко А.И. – Москва: Юрайт, 2025.

Internet resurslari

<http://www.lib.socio.msu.ru>
<http://www.socioline.ru>
<http://www.socio.rin.ru>
<http://www.sociologos.narod.ru>
<http://www.socionet.narod.ru>
<http://www.sociograd.ru>